



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING
BUYRUG'I**

**O'quvchi-qizlar o'rtasida "IT camp" sog'lomlashtirish
oromgohini tashkil etish haqida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 19-maydag'i 2023-yil yoz mavsumi davomida bolalarni dam oldirish va sog'lomlashtirish ishlariga tayyorgarlik ko'rish hamda mavsumni yuqori saviyada o'tkazish to'g'risidagi 18-sonli majlis bayonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda o'quvchilarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida **buyuraman**:

1. O'quvchi-qizlar o'rtasida "IT camp" sog'lomlashtirish oromgohi (keyingi o'rnlarda - Oromgoh) joriy yilning 7-14 iyun kunlari Surxondaryo viloyati, Termiz shahar 26-sonli umumta'lim maktabida o'tkazilsin.

2. Quyidagilar:

O'quvchi-qizlar o'rtasida "IT camp" sog'lomlashtirish oromgohini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

O'quvchi-qizlar o'rtasida "IT camp" sog'lomlashtirish oromgohida o'tkaziladigan tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan ishtirokchilarni taqdirlash bo'yicha xarajatlar smetasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish bo'limi (I.Xoldarov)ga:

Oromgohda o'quvchilarni mazmunli dam olishlarini tashkil etish bo'yicha dastur ishlab chiqish;

Oromgoh dam oluvchilari uchun "Raqamli dizayn", "Grafik dizayn", "Dasturlash", "Robototexnika" yo'nalishlarida tanlovlardan o'tkazish hamda yakunlari bo'yicha g'oliblarni munosib taqdirlash;

Oromgoh pedagog va xodimlari o'rtasida turli "Zakovat" va mantiqiy o'yinlar tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

4. Surxondaryo viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (X.Mamadiyev)ga:

Oromgohni mavsumga xos holatda bezash va ko'rgazmalar tashkil etish;

Oromgoh ishtirokchilari uchun turli tadbirlar va konsert dasturlarini tashkil etish vazifalari topshirilsin.

5. Mazkur buyruq bilan tasdiqlangan xarajatlar vazirlikning 2023-yil uchun markazlashgan tadbirlarning xarajatlar smetasi mablag'lari doirasida amalga oshirilsin.

6. Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi (J.Mannonov) mazkur buyruq bilan tasdiqlangan xarajatlar smetasiga asosan davlat xaridlarini belgilangan tartibda amalga oshirsin.

7. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (F.Jamuratova) tuzilgan shartnomalarga muvofiq o‘rnatilgan tartibda to‘lovlarni amalga oshirilishini ta’minlasin.


8. Axborot xizmat (D.Sobirova) Oromgohda o‘tkazilayotgan tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish va vazirlikning veb-saytida joylashtirish choralarini ko‘rsin.

9. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari D.Kenjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir

Toshkent sh.,
2023-yil “5” - iyun,
151-son

X.Umarova



O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining
2023-yil “5” iyundagi
151 - son buyrug‘iga
1-ILOVA

**O‘quvchi-qizlar o‘rtasida “IT camp” sog‘lomlashtirish
oromgohini tashkil etish bo‘yicha
TASHKILIY QO‘MITA TARKIBI**

1.	D.Kenjayev	-	Vazir o‘rinbosari, rais
2.	I.Xoldarova	-	Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish bo‘limi boshlig‘i, rais o‘rinbosari
3.	B.Aminov	-	Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish bo‘limi bosh mutaxassisi, a’zo
4.	A.Alimov	-	Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish bo‘limi yetakchi mutaxassisi, a’zo
5.	R.Boboqulov	-	Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish bo‘limi yetakchi mutaxassisi, a’zo

O‘zbekiston Respublikasi
 Maktabgacha va maktab ta’limi
 vazirining
 2023 yil “5”-iyundagi
151 - son buyrug‘iga
 2-ILOVA

**O‘quvchi-qizlar o‘rtasida “IT camp” sog‘lomlashtirish oromgohida
 o‘tkaziladigan tanlovlardan g‘oliblarini taqdirlash bo‘yicha
 XARAJATLAR SMETASI**

Tadbir xarajatlar	O‘lchov birligi	Soni	Summasi	Jami
“Raqamli dizayn” yo‘nalishlari g‘oliblari uchun Samsung Galaxy Tab S 8+ 12,4	dona	12	13 500 000	162 000 000
“Grafik dizayn” yo‘nalishlari g‘oliblari uchun Samsung Galaxy Tab S 8+ 12,4	dona	10	13 500 000	135 000 000
“Dasturlash” yo‘nalishlari g‘oliblari uchun Samsung Galaxy Tab S 8+ 12,4	dona	11	13 500 000	148 000 000
“Robototexnika” yo‘nalishlari g‘oliblari uchun Samsung Galaxy Tab S 8+ 12,4	dona	12	13 500 000	162 000 000
Zakovat va mantiqiy o‘yin g‘oliblari uchun Samsung Galaxy Tab S 8+ 12,4	dona	5	13 500 000	67 500 000
Diplom (ishtirokchi va o‘qituvchilarga) ramkasi bilan (yog‘ochlik)	dona	45	42 000	1 848 000
Jami:				676 848 000

Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish bo‘limi boshlig‘i

I.Xoldarova

Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi

J.Mannonov